



KOREYS VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA SHAXS KONSEPTINING MADANIY VA KOGNITIV QIYOSI

Elmuratova Umida Mamadiyorovna

Mustaqil tadqiqodchi (PhD)

Samarqand davlat chet tillar instituti

Sharq tillari fakulteti

Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi

elmuratovau1981@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-1038-5832>

Annotatsiya: “Koreys va o‘zbek adabiyotida shaxs konseptining madaniy va kognitiv qiyosi” mavzusi bugungi kunda tilshunoslik, adabiyotshunoslik hamda madaniyatlararo kommunikatsiya yo‘nalishlarida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda koreys va o‘zbek adabiyotida “shaxs” konseptining ifodalanishi, uning milliy-madaniy xususiyatlari hamda kognitiv asoslari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida har ikki xalq adabiyotidagi qahramon obrazlari, individual va ijtimoiy qadriyatlar, insonning jamiyatdagi o‘rni hamda dunyoqarashi lingvokognitiv va konseptual yondashuv asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: kognitologiya, madaniyat, shaxs konsepti, konseptosfera, kollektivlik.

Kirish. Zamonaviy gumanitar fanlarda shaxs kontsepti madaniyat bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Shaxs nafaqat biologik va psixologik mavjudot, balki muayyan madaniy muhitda shakllanuvchi ijtimoiy subyektdir. Shu bois shaxsni anglash jarayoni uning mansub bo‘lgan jamiyatining qadriyatlar tizimi, ijtimoiy me‘yorlari va kommunikativ an‘analari bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Madaniyatshunoslik va lingvokulturologiya doirasida shaxs kontsepti ko‘pincha individualistik va kollektivistik modellarga ajratib o‘rganiladi. Koreys va o‘zbek madaniyatlari kollektivistik madaniyatlar sirasiga mansub bo‘lib, ularda shaxsning o‘zini anglash jarayoni jamiyat, oila va ijtimoiy guruh bilan aloqadorlik asosida shakllanadi. Bunda shaxs manfaatlaridan ko‘ra jamoa manfaatlar ustuvor hisoblanadi.

Koreys va o‘zbek madaniyatlarida shaxs konsepti kollektivlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, shaxs jamiyatdan ajratilgan holda emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida talqin qilinadi. Til esa ushbu madaniy qarashlarning asosiy ifoda vositasi sifatida shaxsning jamiyatdagi o‘rni, mavqei va munosabatlarini belgilab beradi. Demak, shaxs konseptini lingvokulturologik



jihatdan o'rganish madaniyatlararo tahlil uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shu jumladan adabiy madaniyat nuqtai nazaridan, asarni talqin qilish faoliyati nafaqat oquvchi va muallif o'rtasidagi muloqotdir, balki uni ikkala shaxsga ham tegishli bo'lgan jamoalarning madaniy asoslari va taxminlari, shuningdek, asar atrofida turli talqinlar bilan aloqa qilish uchun bundan tashqariga chiqadigan jarayon sifatida ham ko'rish mumkin. Quyida asardan keltirilgan parchada biz madaniyat tushunchasini inson ongida kognitiv jihatdan talqin qilinishini ko'rishimiz mumkin. *Misol:*

예: 아무리 고개를 넘고 내를 건너도 조선 땅이고 조선 사람밖에 없는 줄 알다가 처음 들은 딘 나라 이름은 덕국(德國)이었다. 아주 오랜 훗날에야 덕국이 우리가 독일이라고 부르는 나라라는 걸 알게 되었지만 그걸 모를 때도 내가 들은 최초의 외국은 나에게 충분히 신비로웠다. 할아버지가 송도에서 물감을 사 오시는 것은 대개 추석이나 설을 앞둔 무렵이었는데 “이건 덕국 물감이다”라고 따로 꺼내 놓는 물감은 네모난 봉지에 들어 있었는데, 빨간 물감에는 빨간 종으로 파란 물감에는 파란 종으로 표시가 돼 있었다. 우표딱지를 대각선으로 접은 것만 한 세모난 표시는 뽀들뽀들하고 선명해서 꼭 진한 꽃잎을 문 것 같았다. 나는 아무것도 모르면서 그 덕국 물감만 보면 가슴이 울렁거렸다. 그것 아마도 내가 최초로 맡은 문명의 냄새, 문화의 예감이었다. [1;16.b.]

Tarjima; Choson¹⁷[2;8.b] yeridan va koreyslardan iborat, deb o'ylab yurganimda ilk bora eshitgan boshqa yurt nomi Olmon davlati edi. Ancha yillardan keyingina Olmon davlati bu Germaniya deb ataladigan mamlakat

¹⁷ XIV–XIX asrlarda Koreya yarim orolida mavjud bo'lgan davlat nomi. Choson sulolasining so'nggi davrida davlat nomi Txanxeguk, ya'ni Koreya imperiyasi deb o'zgartirilgan.



ekanligini bildim. Chusok¹⁸[3;9.b] yoki yangi yil bayrami arafasida bo'lardi. Buvam: "Bu Olmon davlati bo'yog'i", – deya to'rtburchak qog'oz paketlardagi bo'yoqlarni alohida chiqarib qo'yar, qizil bo'yoqning paketi qizil qog'oz bilan, ko'k bo'yoqning paketi esa ko'k qog'oz bilan belgilab qo'yilgandi. Markani diagonal qilib buklagan uchburchak belgi juda yaltillagan va tiniqligidan xuddi ichida qalin gulbarg turganga o'xshardi. O'sha Olmon davlati bo'yog'ini ko'rsam, hayajondan yuragim qinidan chiqqudek tipirchilardi. Menimcha, o'sha narsa men ilk marta tuygan sivilizatsiya belgisi, madaniyatni his qilish tuyg'usi edi. Berilgan matndan parchani madaniy-kognitiv jihatdan tahlil qilganda, unda shaxs ongida shakllanayotgan bilim, tasavvur va madaniy kodlar bir necha qatlamda namoyon bo'ladi:

1. Kognitiv tajriba va dunyoqarashning kengayishi

예; 나는 세상이 조선과 한국 사람들로만 이루어졌다고 생각했을 때, 처음으로 '독일'이라는 나라 이름을 들었다. *Tarjima; Men dunyoni Choson yeridan va koreyslardan iborat, deb o'ylab yurganimda ilk bora eshitgan boshqa yurt nomi Olmon davlati edi.* Matndan keltirilgan parchada qahramonning dastlabki bilim doirasi "Choson yeridan va koreyslardan iborat" bo'lgani aytiladi. Bu – shaxs ongining lokal (mahalliy) kognitiv modeli ekanini ko'rsatadi. Keyinchalik "Olmon davlati" nomini eshitishi esa uning ongida yangi konsept – "begona dunyo / xorijiy makon" tushunchasini shakllantiradi. "Olmon davlati bu, Germaniya" ekanini keyin bilishi – bilimning bosqichma-bosqich kengayishi, bu jarayon kognitiv rivojlanishda nom – tushuncha – real obyekt zanjiri orqali kechadi

2. Madaniy kod va "sivilizatsiya" konsepti.

예; 할아버지는 "이건 독일 물감이다"라고 하시며 색깔별로 정리된 물감 상자를 꺼내셨다.

Buvam: "Bu Olmon bo'yoqlari," deb, ranglarga qarab tartiblangan bo'yoqlar qutisini chiqarib berdilar. "Olmon davlati bo'yog'i" oddiy predmet emas, balki madaniy belgi (kod) sifatida tasvirlangan. Rangli paketlar (qizil, ko'k) – tartib, estetik madaniyat belgisi, "yaltillagan, tiniq" tasviri – yuqori sifat, rivojlanganlik ramzidir. 예: 그것은 내가 처음으로 느낀 문명과 문화의 상징이었다. *Tarjima; Menimcha, o'sha narsa men ilk marta tuygan*

¹⁸ Chxusok – hosil bayrami, koreys xalqining an'anaviy bayramlaridan biri.



sivilizatya belgisi edi. Qahramon ongida: Olmon davlati qaxramonning tassavurida taraqqiyot, madaniyat, sivilizatsiya tushunchalarini paydo qilgan. Bu yerda predmet (bo‘yoq) orqali butun bir xalq va madaniyat haqidagi umumiy tasavvur shakllanadi – bu kognitiv umumlashtirish (generalizatsiya) jarayonidir.

3. Emotsional-kognitiv bog‘liqlik.

예; 그 독일 물감을 볼 때마다 가슴이 터질 듯이 설레었다 .

Tarjima. O‘sha Olmon davlati bo‘yog‘ini ko‘rsam, hayajondan yuragim qinidan chiqqudek tipirchilardi. Parchada bilish jarayoni faqat aqliy emas, balki hissiy kechinmalar bilan uzviy bog‘langan: “yuragim qinidan chiqqudek tipirchilardi” – kuchli emotsional reaksiya, yangi narsani ko‘rish orqali unda hayrat, qiziqish, intilish kabi his tuyg‘ular jo‘sh uradi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, yangi madaniyatni anglash jarayoni emotsional tajriba orqali mustahkamlanadi.

4. Milliy va “begona” madaniyat oppozitsiyasi.

예; 나에게 조선은 익숙한 세계였지만, 독일은 낯설고 신기한 세

계였다. *Tarjima; Men uchun Choson tanish bir dunyo edi, ammo Germaniya begona va hayratlanarli bir dunyo edi.* Matnda ikki madaniy makon qarama-qarshi qo‘yiladi: “o‘zimizniki” (Choson, koreyslar) tanish, oddiy, kundalik tarzi bilan ifodalansa, aksincha “boshqa” (Olmon davlati) – noodatiy, jozibador, rivojlangan mamlakat tushunchasini namoyon etadi. Bu oppozitsiya orqali qahramon ongida bevosita “o‘zlik” (milliy identitet), bilvosita “begonalik” (xorijiy madaniyat) aniq ajralib boradi.

5. Predmet orqali abstrakt tushunchani anglash.

Bo‘yoq – konkret predmet, lekin u orqali qahramon: “sivilizatsiya”, “madaniyat”, “rivojlanganlik” kabi abstrakt konseptlarni his qiladi. Bu – kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan metonimik va metaforik tafakkur namunasidir (qism orqali butunni anglash). Matindan keltirilgan parcha orqali, shaxsning dunyo haqidagi bilimlari kengayishi, xorijiy madaniyatni predmet orqali anglashi, emotsiya va bilishning uyg‘unligi, milliy va global tafakkurning to‘qnashuvi kabi tushunchalar yorqin ifodalangan. Natijada “Olmon davlati bo‘yog‘i” oddiy buyum emas, balki qahramon ongida ilk bor shakllangan “sivilizatsiya va madaniyat” konseptining kognitiv modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek va koreys badiiy adabiyotida shaxs konseptosferasining ifodalanishi har ikki xalqning milliy dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari va tarixiy tajribasiga tayanadi. Bu konseptosfera tilda, obrazlarda va muallifning



estetik qarashida mujassam holda namoyon bo'ladi. Har ikki adabiyotda shaxs konsepti insonning ichki dunyosini, uning jamiyat, vijdon, tabiat va taqdir bilan munosabatini badiiy vositalar orqali ochib beradi.

O'zbek adabiyotida, xususan, Tog'ay Murod asarlarida shaxs konseptosferasi xalq, yer va vatan bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Uning qahramonlari shaxsiy erkinlik, adolat, mehr va vijdon kabi konseptlar bilan yashaydi. "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida shaxs konseptosferasi milliy ruh bilan yo'g'rilgan bo'lib, inson o'zligini xalq taqdiri, ona yer, urf-odat va ezgulik bilan o'Ichaydi. Tog'ay Murod qahramonlarida mag'rurlik, matonat, sabr va iymon kabi ma'naviy kategoriyalar konseptual markazni tashkil etadi. Bu orqali yozuvchi shaxsni jamiyatdagi ma'naviy kuch va axloqiy mas'uliyat timsoli sifatida gavdalantiradi.

Shaxs konsepti lingvokulturologik jihatdan milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Badiiy matn esa ushbu konseptning eng yorqin ifoda maydoni bo'lib, unda shaxsning xarakteri, ijtimoiy roli, ruhiy holati va qadriyatlari obrazli vositalar orqali aks ettiriladi. Tog'ay Murod asarlari turli madaniy kontekstlarda shaxs konseptining o'ziga xos talqinini ko'rsatadi.

1956-yil bo'ldi.

O'zbekistonda televizor joriy bo'ldi.

O'zbek xalqi televizor ko'rajak bo'ldi.

Shu bois televizor otliqqa yo'q bo'ldi.

Ushbu antiqadan bir donasi tuman xotin-qizlar qo'mitasi ixtiyoriga keldi.

Qo'mita faollari maskur mujda otini topa olmay qiynaldi. To'pariroq faol, "quti", dedi. Ilg'or faol "oyna", dedi. O'qimishliroq faol "dilbuzar" dedi.[4;40.b] Mazkur parcha madaniy-kognitiv nuqtayi nazardan qaranganda, jamiyatning yangi hodisani qanday qabul qilishi, anglash va nomlash jarayonlari orqali tafakkur qanday ishlashini yaqqol ko'rsatadi. Avvalo, televizor – bu mutlaqo yangi obyekt. Kognitiv jihatdan inson ongida yangi tushunchani anglash uchun u mavjud bilimlar asosida talqin qilinadi. Parchada faollar televizorni "quti", "oyna", "dilbuzar" deb atashga urinishi aynan shu jarayonni ifodalaydi. Ya'ni ular notanish narsani tanish kategoriyalar orqali tushuntirishga harakat qilmoqda:

- a) "quti" – predmetni shakl (fizik ko'rinish) asosida idrok etish,
- b) "oyna" – funksional o'xshashlik (tasvir aks etishi) orqali tushunish,
- c) "dilbuzar" – emotsional va psixologik ta'sir asosida baholash.

Bu holat kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan metaforik tafakkurning



yorqin namunasi hisoblanadi. Inson yangi fenomenni bevosita emas, balki o'xshatish va tajriba orqali anglaydi. Madaniy jihatdan esa bu parcha o'zbek jamiyatining modernizatsiya davridagi holatini aks ettiradi. Televizorning xotin-qizlar qo'mitasiga berilishi, madaniyatning institutsional nazorat ostida shakllanayotganini bildiradi. Ya'ni yangi texnologiya oddiy ko'ngilochar vosita emas, balki ma'rifiy va ideologik qurol sifatida ko'rilgan. Shuningdek, nom tanlashdagi bahslar jamiyat ichidagi turli qatlamlar (oddiy faol, ilg'or faol, o'qimishli faol) o'rtasidagi tafakkur darajasini ham ochib beradi. Bu esa madaniyatning bir xil emas, balki ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat – til va madaniyat o'zaro bog'liqligi. Yangi texnologiya kirib kelishi bilan til boyiydi, lekin bu jarayon darhol emas, balki izlanish, muhokama va tanlash orqali amalga oshadi. Demak, til – bu faqat aloqa vositasi emas, balki madaniy tajribani shakllantiruvchi va tartibga soluvchi tizimdir. Parcha madaniy-kognitiv jihatdan inson ongining yangi reallikni o'zlashtirish mexanizmini, metafora orqali tushunishni, hamda jamiyatda madaniyat va tilning yangilanish jarayonini chuqur aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek adabiyotida "shaxs" konsepti har ikki xalqning milliy mentaliteti, tarixiy taraqqiyoti hamda madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. O'zbek adabiyotida shaxs ko'proq ma'naviyat, oilaviy qadriyatlar, jamiyat oldidagi mas'uliyat va insoniy fazilatlar orqali talqin qilinsa, koreys adabiyotida esa intizom, jamoaviylik, mehnatsevarlik hamda ichki ruhiy kechinmalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Kognitiv jihatdan tahlil qilinganda, har ikki adabiyotda shaxs obrazi insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Biroq o'zbek adabiyotida individual shaxs ko'proq milliy an'ana va axloqiy qadriyatlarga tayansa, koreys adabiyotida zamonaviylik va an'anaviy qarashlar o'rtasidagi ziddiyatlar chuqurroq aks ettiriladi. Madaniy qiyos shuni ko'rsatadiki, ikki xalq adabiyotidagi shaxs konsepti umumiy insoniy qadriyatlarda mushtaraklikka ega bo'lsa-da, ularning ifodalanish usuli, dunyoqarashi va ijtimoiy tafakkurida o'ziga xos milliy farqlar mavjud. Shu sababli koreys va o'zbek adabiyotini qiyosiy o'rganish nafaqat adabiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki turli madaniyatlarda inson va shaxs tushunchasining qanday shakllanishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 박완서, 『그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까』, 1992. 300. 쪽.
2. Pak Vanso "Shuncha shingani kim egan"- Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot -matba ijodiy uyi, 2021.- 304 b.



3. “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi”/ Tog‘ay Murod – Toshkent : Zukko kitobxon nashriyot-matbaa uyi 2023-218 b.
4. Elmuratova, U. (2025). O‘zbek va koreys tillarida shaxs konseptosferasining periferik birliklari. Konferentsiyalarda (1 - jild, №1).
5. Mamadiyorovna, yevropa ittifoqi (2022). Koreys va o‘zbek tillarida shaxs belgilari konseptining ilmiy talqinlari. *Innovatsiya: ijtimoiy fanlar va tadqiqotlar jurnali*, 159.